

## MAHALLA BANKI — AHOLINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘LIDAGI MUHIM QADAM

**Jiyemuratova Alfiya Adilbaevna**

*Bakalavr Chimboy BXO, Mayjap OFY mahalla agenti*

*Email: Ajiyemuratova@gmail.com / Tel: +998334210919*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mahalla banki tizimi orqali aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, qishloq joylardagi aholini biznes g’oyalari bilan ta’minlash, bank xizmatlarini aholiga yaqinlashtirish va natijada mahalla aholining turmush darajasini oshirish kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** mahalla banki, moliyaviy savodxonlik, ayollar tadbirkorligi, kichik biznes, qishloq aholisi, kredit, mahallabay ishslash

### KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslardan biri bu — aholiga moliyaviy xizmatlarni bevosita mahallalarda taqdim etuvchi Mahalla banki tizimini joriy etish bo‘ldi. Bu tizim qisqa vaqt ichida xalqimizga yaqin, qulay va foydali vositaga aylandi. Mazkur maqolada ushbu tizimning asosiy jihatlari, uning mahalliy darajadagi amaliy natijalari va muallifning shaxsiy faoliyati doirasida erishilgan yutuqlar haqida so‘z yuritiladi.

Mahalla bankingining maqsadi va vazifalari

Mahalla bankingining asosiy maqsadi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanishini soddallashtirish, ularni zamonaviy bank xizmatlari bilan tanishtirish, va aholini o‘z tadbirkorligini boshlashga undashdan iborat. Bu tizim orqali har bir mahallada moliyaviy xizmatlar aholiga yaqinlashtirilmoqda. Endilikda odamlar uzoq tuman markazlariga borib, bir necha kun vaqt yo‘qotish o‘rniga, mahallaning o‘zida zarur xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi roli

Mahalla banki orqali biz aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Kredit olish, uni to‘g‘ri sarflash, daromad va xarajatlar rejasini tuzish, biznes rejalar tuzish kabi ko‘nikmalarini oddiy xalq tilida tushuntirib beramiz. Bu esa aholining o‘z puliga nisbatan mas’uliyatliroq munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Ayollar tadbirkorligi va bandlik

Mahalla banki tizimi orqali ayniqsa ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilgan. Biz ko‘plab ayollarga kichik biznes boshlash g’oyalalarini taklif etamiz va kredit olishda yordam beramiz. Masalan, go‘zallik saloni ochish, yarim tayyor mahsulotlar tayyorlash, tikuvchilik, bolalar uchun kiyim tikish, va ijara beriladigan liboslar biznesi kabi loyihamalar muvaffaqiyatli boshlanmoqda. Bu orqali ayollar o‘z-o‘zini band qilmoqda va oilaviy byudjetga munosib hissa qo‘shmoqda.

### Bank xizmatlarining yaqinlashuvi

Avvallari bank xizmatlaridan foydalanish uchun aholi tuman markazlariga borishga majbur edi. Endilikda esa, bank xizmati xalqning o’ziga keldi. Bu — odamlar uchun katta yengillik. Mahalla agentlari orqali kerakli hujjatlar yig‘iladi, arizalar to’ldiriladi va jarayon nazorat ostida yuritiladi. Bu tizim odamlarning ishonchini qozonmoqda.

Qishloq joylardagi biznes g‘oyalari va ularni amalga oshirish

Qishloq joylarida odamlarning imkoniyatlari va bozor talablariga mos biznes g‘oyalarni ishlab chiqib, aholiga taqdim etamiz. Masalan: lag‘mon va pelmeni kabi yarim tayyor mahsulotlar tayyorlash, go‘zallik xizmatlari, kichik fermerchilik, tikuvchilik, ayollar uchun aksessuarlar savdosi kabi ko‘plab g‘oyalar taklif qilinmoqda. Har bir fuqaroga imkoniyatiga qarab individual yondashuv qo‘llaniladi. Shu vaqtgacha 60 dan ortiq fuqaroga kredit ajratilishiga va o‘z biznesini boshlashiga amaliy yordam ko‘rsatildi.

Shaxsiy kuzatuvlar va misollar

Mahalla agenti sifatida faoliyatimni 2025-yil yanvar oyida boshlaganman. Shu vaqt ichida 60 dan ortiq fuqaro bilan ishladik. Ularning orasida o‘z biznesini boshlaganlar, daromad topishni yo‘lga qo‘yanlar, hatto boshqa odamlarga ham ish bergenlar bor. Odamlar bizga ishonmoqda, har safar dua bilan minnatdorchilik bildirayotgani meni yanada katta ishtiyoq bilan ishslashga undaydi.

### XULOSA

Mahalla banki — bu oddiygina bank xizmatlarini taqdim etuvchi tizim emas. Bu — xalqning hayotiga, imkoniyatlariga bevosita ta’sir qilayotgan, ularning turmush tarzini o‘zgartirayotgan zamonaviy tizimdir. Mahalla agentlari esa bu jarayonning yuragi bo‘lib, xalq bilan xalqning tilida gaplashadigan, ularning ishonchini qozonadigan haqiqiy ko‘prikdir. Ushbu tajribani mamlakatimizning barcha hududlariga keng yoyish orqali biz moliyaviy barqarorlik sari yana bir qadam tashlaymiz.

Adabiyotlar

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 2024-yil.
- [2] Mahalla banki loyihasiga oid metodik qo‘llanmalar.
- [3] Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha statistik ma’lumotlar, 2024–2025.
- [4] Mahallabay ishslash tajribalari to‘g‘risidagi ochiq manbalar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi PQ-199-sun qarori — “Ahola yaqin bank tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-oktabrdagi PQ-408-sun qarori — “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. <https://www.cbu.uz/>
4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi statistik hisobotlari. <https://mineconomy.uz/>

5. Mamatqulov B., Xasanov S. — "Moliyaviy savodxonlik asoslari", Toshkent: 2021.
6. Qishloq joylarida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy qo‘llanma, “Yangi avlod” nashriyoti, 2023.
7. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi axborot byulletenlari, 2024-yil.